



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 24 yil “17-” iyul

№ 238

Toshkent sh.

### 2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2009-yil 18-dekabrdagi 319-sون, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 30-avgustdagи PQ-364 qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l xarita"ning 40-bandidagi "Klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash tizimini takomillashtirish" bo'yicha belgilangan vazifalarga muvofiq hamda tibbiyotning dolzarb yo'nalishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda tibbiyot kadrlariga bo'lgan ehtiyoj va talabni e'tiborga olib, **buyuraman**:

#### 1. Quyidagilar:

Klinik ordinatura (rezidentura) orqali tibbiyot kadrlarni 2024/2025 o'quv yilida tayyorlash bo'yicha mutaxassisliklari va ularga muvofiq keluvchi bakalavriat **ta'lim yo'nalishlari ro'yxati** 1-ilovaga muvofiq;

2024/2025 o'quv yilida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari kesimida klinik ordinatura (rezidentura)ga **umumiyl va maqsadli qabul rejasi** 2-ilovaga muvofiq;

2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul bo'yicha **mas'ul kotiblar ro'yxati** 3-ilovaga muvofiq;

Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari klinik ordinator (rezident)larini "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, Fuqarolik jamiyat" fanini o'qitish uchun Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish **markazi va tibbiyot oliy ta'lif muassasalariga biriktirish jadvali** 4-ilovaga muvofiq;

2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risidagi **hisobot shakllari** 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

2024/2025 o'quv yili qabulida:

klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklariga o'qishga qabul qilish tibbiyot oliy ta'lif muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan tanlangan mutaxassislikka mos ravishda tegishli bakalavriat ta'lif yo'nalishlari fanlari negizida kirish sinov imtihonlari amalga oshiriladi, bunda fanlar bo'yicha **kirish imtihonlari test sinovlari shaklida** o'tkaziladi;

klinik ordinatura mutaxassisligiga mos ravishda tegishli bakalavriat ta'lif yo'nalishlari bo'yicha imtihonlar natijalari sinovlar o'tkazilganidan keyin uch kun muddatda ta'lif muassasasi tomonidan idoralararo elektron axborot almashinuv tizimi orqali Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etiladi hamda mazkur muassasaning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

3. 2024/2025 o'quv yili Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligi **N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetida** O'zbekiston Respublikasining 35 nafar fuqarosi ta'lif oladigan oliy ta'lifning o'quv dasturlari — **ordinatura dasturlari ro'yxati** 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

2024/2025 o'quv yili Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligi N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining (keyingi o'rnlarda — RMTTU) ordinatura mutaxassisliklariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini **o'qishga qabul jarayoni tartibi** 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun qabul parametrlari soni klinik ordinatura mutaxassisliklari kesimida 2024/2025 o'quv yili uchun RMTTU tomonidan tasdiqlanadi, bunda umumiylashtirilgan o'tganlar uchun o'qish to'lov kontrakt asosida amalga oshirilishi inobatga olinsin;

2024/2025 o'quv yili RMTTU ordinatura tanlovida yuqori ball olib o'qishga qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 35 nafar fuqarosi uchun Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi fondi" hisobidan klinik ordinatorning borish kelish aviachiptasi (bir martalik), kunlik safar xarajatlari hamda **o'qish to'lov kontrakt summasi qoplanishi** belgilansin.

Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari rektorlari Rayosati raisi (B. Daminov), Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari rektorlari va filiallari direktori (Sh.Boymuradov, B.Daminov, N.Xaydarov, O.Ataniyazova, J.Rizayev, A.Madazimov, Sh.Teshayev, A.Sidikov, R.Ro'zibayev, F.Otaqulov, G.Sultanov)ga:

Respublika tibbiyot oliy ta'lif muassasalarida tanlov bosqichlari yuqori saviyada amalga oshirilsin, bunda:

2024-yilning 16-18-avgust kunlari har bir tibbiyot oliy ta'lim muassasasida dastlabki tanlov (suhbat)dan o'tkazish bo'yicha Ishchi guruhni shakllantirish, talabgorlarni rus tilida dastlabki tanlov (suhbat)dan o'tkazilsin;

2024-yil 20-avgust kuniga qadar Ishchi guruh tomonidan tanlovda ishtirok etishga tavsiya etilgan abituriyentlar hujjatlarini N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti ordinatura mutaxassisliklariga qabul bo'yicha e'lon qilingan veb-saytda topshirish va ro'yxatdan o'tish jarayonini olib borish, ordinatura mutaxassislariga qabul tanlovi onlayn test savollari bo'yicha abituriyentlar o'z-o'zini nazorat qilish uchun imkoniyatlar yaratilsin;

2024-yil 22-24-avgust kunlari abituriyentlarning N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti ordinatura mutaxassisliklariga qabul bo'yicha onlayn formatdagi test sinovlarida ishtirok etishlarini markazlashgan holda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti hududida tashkil etilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri (M.Kurbanov), Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmasi boshliqlari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi (X.Akilov), Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlari (Sh.Boymuradov, B.Daminov, N.Xaydarov, O.Ataniyazova, J.Rizayev, A.Madazimov, Sh.Teshayev, A.Sidikov, R.Ro'zibayev, F.Otaqulov, G.Sultanov):

uch kun muddatda, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab, yuqori malakali ilmiyamaliy kadrlar potensiali mavjud, zamonaviy moddiy-texnik bazaga ega va klinik ordinatorlarni o'qitish bo'yicha ta'lim dasturlari mavjud xususiy klinikalarda klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash tizimini joriy etish istagini bildirgan va meyo'riy hujjatlari talab va shartlarga javob beradigan xususiy klinikalar tomonidan Vazirlikka talabnama va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi e'lon qilinsin;

klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash bo'yicha da'vegar bo'lib, Sog'liqni saqlash vazirligiga 2024/2025 o'quv yiliga talabnama taqdim etgan xususiy klinikalarni (keyinchalik – Xususiy klinika) amaldagi qonunchilikka muvofiq talablarga mos ekanligini aniqlaydigan va ta'lim jarayoni boshlanishini belgilaydigan Sog'liqni saqlash vazirligi komissiyasi (keyinchalik — Komissiya) tashkil etilsin va **Klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash bo'yicha da'vegar xususiy klinikalarni amaldagi qonunchilikka muvofiq talablarga mosligini aniqlash Komissiya a'zolari ro'yxati** 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2024-yil 1-avgust kuniga qadar**, Komissiya a'zolari tomonidan xususiy klinikalardan talabnomalar yig'ib umumillashtirilsin, to'liq ma'lumot Vazirlikda muxokamaga taqdim etilsin, quyidagi talablarga javob berishi batafsil tekshirilsin:

Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2009-yil 18-dekabrdagi 319-son qarori bilan tasdiqlangan 2-ilovadagi Klinik ordinatura to'g'risidagi Nizom talablari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzlucksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish

chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-apreldagi PQ-4666-son qarorining 12-bandi talablar;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagagi 88-sonli “Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi to‘g‘risidagi yagona Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorining 7-ilovasi bilan tasdiqlangan “Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyatining Pasporti”da belgilangan talablar va shartlarga majburiy javob bergan xolda, Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligiga **Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyati** to‘g‘risida xabarnoma berilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagagi 80-sonli “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorning 2-ilovasidagi Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona Nizomga asosan, Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash Pasportida belgilangan litsenziya talablari va shartlariga mos bo‘lgan holda, Litsenziyalovchi organ — Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligidan Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishni amalga oshirish uchun **litsenziya mavjudligi**.

### **Komissiya xulosasiga muvofiq, komissiya a’zolari tomonidan quyidagilar amalga oshirilsin:**

klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash bo‘yicha da’vogar bo‘lib, Sog‘liqni saqlash vazirligiga 2024/2025 o‘quv yiliga talabnomalarini etgan hususiy klinikalarini amaldagi qonunchilikda belgilangan shart va talablarga mos bo‘lganlarini tanlab olib, klinik ordinatorlarni o‘qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar ro‘yxatini tuzish.

Bunda, har bir xususiy klinikaga sifatli ta’lim jarayon amalga oshirish imkoniyatidan kelib chiqib:

o‘qitiladigan mutaxassisliklar ro‘yxati;

qabul kvotalari ko‘rsatkichlari;

qabul jarayoni uchun mas’ul kotiblar nomzodlarini belgilasin va Komissiya yig‘ilishi Bayoni bilan tasdiqlasın;

qabul jarayoni o‘rnatilgan talablarga mos ravishda amalga oshirilsin (ushbu buyruqni 9 bandiga muvofiq);

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarini klinik ordinatura mutaxassislarini tayyorlaydigan xususiy klinikalarga hududlar kesimida biriktirilish taqsimotini 9-ilovaga muvofiq tasdiqlasın;

biriktirilgan tibbiyot oliy ta’lim muassasalarini xususiy klinikalarga qabul jarayoni, nazariy ta’lim jarayoni, sifatli uzlucksiz ta’lim jarayoni, bilim va ko‘nikmalar nazoratida metodik yordam ko‘rsatib borsin;

oraliq va yakuniy nazorat jarayonlarida, 2 bosqichli yakuniy davlat attestatsiya jarayonlarida biriktirilgan tibbiyot oliy ta’lim muassasalarini mas’ul xodimlari,

Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'lijni saqlash vazirligi, Viloyatlar sog'lijni saqlash boshqarmasi mas'ullari ishtiroki ta'minlansin.

Klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar o'rnatilgan muddatda akkreditatsiyadan o'tishi ta'minlansin va belgilangan nusxadagi Guvohnoma berilishiga ruxsat etilsin.

5. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari rektorlari va direktorlari (qabul komissiyalari raislari) hamda klinik ordinatura bo'yicha **qabul komissiyasi mas'ul kotiblari**:

klinik ordinatura (rezidentura)ga hujjat topshirish jarayonida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari, ularning yaqin qarindoshlari va boshqa fuqarolarga to'liq va bat afsil tushuntirish ishlarini olib borish;

ommaviy va jamoaviy murojaatlarni oldini olish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rishga shaxsan mas'ul hisoblanadi;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining mas'uliyatsizlik bilan yondashgan birinchi rahbarlariga o'rnatilgan tartibda intizomiyo jazo qo'llanilishi to'g'risida ogohlantirilsin.

6. Klinik ordinatura (rezidentura)ga o'qishga kirish uchun talabgorlar tibbiyot oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy markaz davlat va nodavlat tibbiyot muassasalari qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisligi ko'rsatilgan holda, oliy ta'lim muassasasi (ixtisoslashtirilgan ilmiy markazi, ilmiy-tadqiqot instituti) rektori (direktori) va nodavlat tibbiyot muassasasi rahbari nomiga ariza;

oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat (yoki diplomdan ko'chirma — O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarini davlat granti bo'yicha o'qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova;

086-U-shakldagi tibbiy ma'lumotnomasi;

qonunchilik hujjatlariga muvosiq o'qishga kirishda imtiyoz beruvchi hujjat.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mayjud bo'lganda oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi abituriyentning hujjatlarini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

7. **Matbuot xizmati** (F. Sanayev), "**O'zbekistonda sog'lijni saqlash**" gazetasi (I. Soatovali) bilan birgalikda klinik ordinatura (rezidentura) qabul kvotalarining ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishini ta'minlasin.

8. **Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari rahbarlari:**

2024/2025 o'quv yili qabulida hujjat topshiruvchilarga qulaylik yaratish maqsadida ro'yxatdan o'tish jarayoni bevosita va onlayn tarzda – tashkilotlarning rasmiy veb-saytlari orqali amalga oshirilsin;

klinik ordinatura (rezidentura)ga hujjatlar qabul qilishni ommaviy axborot vositalarida tanlov e'lon qilingan kundan boshtab, joriy yilning **20-avgustiga qadar (shu kuni ham) amalga oshirilishi**;

hujjat topshiruvchilar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollarga javob berish uchun tashkilotlarda haftaning dushanba-shanba kunlari soat 9:00-18:00 gacha (1-sentyabrgacha bo'lgan muddatda) ishlaydigan murojaatlar markazi ("Call markaz") faoliyatini tashkil etish;

qabul qilingan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotni joriy yilning **22-avgustiga qadar** o'rnatilgan tartibda vazirlik Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasiga topshirilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar qabul rejasi bo'yicha berilgan maqsadli o'rnlarga tanlovni har bir viloyat uchun alohida tashkil etish va ajratilgan o'rnlarga ushbu hududlarda yashovchi yoki boshqa viloyatlarda ishlash istagini bildirgan shifokorlarni qabul qilinishi;

joriy yilning **24-26-avgust kunlari** tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, nodavlat tibbiyot muassasalari (xususiy klinikalar)da 2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklari bo'yicha kirish imtihonlari **bir bosqichli test sinovlari asosida Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi** va uning hududiy bo'limlari tomonidan o'tkazilishi **inobatga olinsin**.

Bunda,

**2024-yil 1-avgustga qadar** tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlar Rayosati tomonidan test sinovi savollarini **Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markaziga tasdiqlangan shaklda taqdim etish**;

**2024-yil 22-avgustga qadar** test sinovlarini tashkil etish bo'yicha Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi bilan shartnomalarasmiylashtirish;

klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha test sinovlari topshiradigan talabgorlarni belgilangan muddatda test sinovlarida ishtirop etish;

**2024-yil 24-avgustga qadar** har bir talabgor uchun bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravari miqdoridagi to'lovlarni tegishli tashkilotlar tomonidan **Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markaziga** to'lab berish;

klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish rejasi bajarilganligi to'g'risidagi hisobotni joriy yilning **5-sentabr sanasiga qadar** vazirlikning Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etish;

klinik ordinatura (rezidentura)ga kirish uchun tanlovda ishtirok etuvchi har bir shifokorga uning hujjatlari qabul qilinganligi va test sinovlari muddati ko'rsatilgan ma'lumotnomasi qabul komissiyasi tomonidan berilishini ta'minlash;

klinik ordinatura (rezidentura)ni tugatgan har bir mutaxassisni ishga joylashish monitoringini ta'minlash maqsadida, ular to'g'risidagi ma'lumotni Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'lijni saqlash boshqarmalariga taqdim etish **vazifalari yuklansin**.

#### **9. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi (S.Sharipov):**

markaz va uning hududiy bo'limlarida test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlarni yo'lga qo'sysin;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlar Rayosati bilan hamkorlikda sinovlar uchun testlar bazalarini shakllantirsin;

klinik ordinaturada o'qish uchun talabgorlar e'tiboriga test sinovlari namunalari rasmiy saytlarda e'lon qilinsin.

#### **10. Sog'lijni saqlash vazirining birinchi o'rinnbosari (D.Sultanov) hamda Ilm-fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i (O. Ismailov)**

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri uchun klinik ordinatura (rezidentura)ga ajratilgan o'rinnlar to'ldirilmagan taqdirda, ularni hududiy kvota doirasida qayta taqsimlash;

Toshkent shahrida tanlovdan o'tgan shifokorlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari filiallarida o'qish roziligini bildirgan holda ularni viloyat qabul rejasi doirasida yuborish vazifalari topshirilsin.

#### **11. Moliya-iqtisod boshqarmasi (O.Safarov):**

joriy yilning 1-sentyabrga qadar Sog'lijni saqlash vazirligi tizimida 2024/2025 o'quv yilida klinik ordinator (rezident)larni tayyorlash bir yillik o'qitish qiymati hisob-kitoblarini hamda maqsadli to'lov-kontrakt to'lov bo'yicha qabul parametrlari asosida o'qishga qabul qilingan abituriyentlarning to'lov-kontrakt summasi ishlab chiqsin;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, ularning filiallari, Tibbiyot xodimlari kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi klinik ordinator (rezident)lar uchun «O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, Fuqarolik jamiyat» fanini ikki yil mobaynida umumiy 36 soat o'qitish;

N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetida ordinatura tanlovida yuqori ball olib o'qishga qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 35 nafar fuqarosi uchun Sog'lijni saqlash vazirligi huzuridagi "Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi fondi" hisobidan klinik ordinatorning borish kelish aviachiptasi (bir

mortalik), kunlik safar xarajatlari hamda o'qish to'lov kontrakt summasi qoplanishi uchun sarf-xarajatlar **hisob-kitobini ishlab chiqish choralarini ko'rsin**.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida faoliyat yuritayotgan shifokorlar oylik ish haqiga qo'shimcha har oylik ustama to'lanadigan olis va chekka hududlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 19-sentyabrdagi 510-son qarorining 1-bandi 4-xatboshisiga amal qilgan holda "olis va chekka hududlarda uzlusiz uch yil ishlagan shifokorlar klinik ordinaturaga test sinovlarisiz qabul qilinishi" inobatga olinsin. Mazkur imtiyozni qo'llashda qarorning ilovasi bilan tasdiqlangan olis va chekka hududlar ro'yxatiga amal qilinsin.

olis va chekka hududlarda uzlusiz uch yil ishlagan shifokorlar klinik ordinaturaga test sinovlarisiz belgilangan kvotadan tashqari qabul qilinishi va bunda davogar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning mazkur toifaga mos kelishi, to'g'ri rasmiylashtirilgani va ularning qonuniyligi uchun javobgarlik tibbiyot oliy ta'lim muassasalariga yuklatilishi inobatga olinsin.

13. Sog'liqni saqlash vazirining 2024-yil 18-martdag'i "2024/2025 o'quv yilida birlamchi maqsadli ixtisoslashtirish kurslari (internatura)ga qabul qilish to'g'risida" 81-son buyrug'iiga quyidagi qo'shimchalar kiritilsin:

Sog'liqni saqlashning birlamchi tizimi muassasalarida psixogen va psixosomatik kasalliklarning profilaktikasi, diagnostikasi, psixoterapiyasi, farmakoterapiyasi va psixoreabilitatsiyasi bilan bilan shug'ullanuvchi tibbiy psixologlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olib 2024/2025 o'quv yilida Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi va tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bo'yicha "Tibbiy psixologiya va psixoterapiya" mutaxassisligi bo'yicha internaturaga qabul kvotalari 10-ilovaga;

Respublika hududlarida mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olib, "Dermatovenerologiya (teri tanosil kasalliklari)" mutaxassisligi bo'yicha internaturaga qabul kvotalari 11-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-iyundagi "Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-196-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Narkologiya" mutaxassisligi bo'yicha grant asosida internaturaga qabul kvotalari 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda mazkur mutaxassislik bo'yicha shifokorlarni qabul qilish tartibi Sog'liqni saqlash vazirining 2024-yil 18-martdag'i "2024/2025 o'quv yilida birlamchi maqsadli ixtisoslashtirish kurslari (internatura)ga qabul qilish to'g'risida" 81-son buyrug'i asosida amalga oshirilsin.

14. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir v.b.



A.Xudayarov

O'zbekiston Respublikasi  
 Sog'liqni saqlash vazirining  
 2024-yil "17" 07 dagi  
~~238~~-sonli buyrug'iga  
**1-ilova**

**Klinik ordinatura (rezidentura) orqali tibbiyot kadrlarni  
 2024/2025 o'quv yilida tayyorlash bo'yicha mutaxassisliklari va ularga muvofiq keluvchi  
 bakalavriat ta'lif yo'nalishlari ro'yxati**

№	Klinik ordinatura mutaxassisliklari* nomi	Bakalavriat ta'lif yo'nalishlari nomi	
		shifri	
1.	Akusherlik va ginekologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lif (Davolash ishi)
2.	Allergologiya va klinik immunologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lif (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
3.	Anesteziologiya va reanimatologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lif (Davolash ishi)
4.	Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
5.	Bolalar kardioresmatologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
6.	Bolalar immunologiya-allergologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
7.	Bolalar onkologiya-gematologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
8.	Bolalar nevrologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
9.	Bolalar nefrologiyasi gemodializ bilan	5510200	Pediatriya ishi
10.	Bolalar va o'smir qizlar ginekologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
11.	Bolalar urologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
12.	Bolalar xirurgiyasi	5510200	Pediatriya ishi
13.	Bolalar kardioxirurgiyasi*****	5510200	Pediatriya ishi
14.	Bolalar terapevtik stomatologiyasi	5511000	Bolalar stomatologiyasi
15.	Bolalar jarrohlik stomatologiyasi	5511000	Bolalar stomatologiyasi
16.	Bolalar yuqumli kasalliklari	5510200	Pediatriya ishi
17.	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
18.	Gematologiya va transfuziologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lif (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
19.	Gigiyena (yo'nalishlar bo'yicha)	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
20.	Dermatovenerologiya (teri tanosil kasalliklari)	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lif (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
21.	Dental implantologiya	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
22.	Diyetologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lif (Davolash ishi)

		5510200	Pediatriya ishi
23.	Ichki kasalliklar (terapiya) (yo‘nalishlar bo‘yicha)	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
24.	Intervension kardiologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
25.	Kardiologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
26.	Kardioxirurgiya****	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
27.	Klinik farmakologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
28.	Kommunal gigiyena	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
29.	Laboratoriya ishi	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
		5510900	Tibbiy – biologik ish
		5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
		5510400	Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha)
		5511000	Bolalar stomatologiyasi
30.	Mehnat gigiyenasi	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
31.	Morfologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
32.	Narkologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
33.	Nevrologiya (asab kasalliklari)	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
34.	Neyroxirurgiya**	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
35.	Neonatologiya	5510200	Pediatriya ishi
36.	Nefrologiya gemodializ bilan	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
37.	Nutritsiologiya (ovqatlanish gigiyenasi)	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
38.	Otorinolaringologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
39.	Ortodontiya	5510400	Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha)
		5511000	Bolalar stomatologiyasi
40.	Ortopedik stomatoogiya	5510400	Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha)
		5511000	Bolalar stomatologiyasi
41.	Oftalmologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta’lim (Davolash ishi)

		5510200	Pediatriya ishi
42.	Patologik anatomiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
		5510300	Tibbiy profilaktika ishi***
43.	Parodontologiya	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
44.	Pediatriya (yo'nalishlar bo'yicha)	5510200	Pediatriya ishi
45.	Plastik xirurgiya*****	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
46.	Psixiatriya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
47.	Pulmonologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
48.	Reabilitologiya (davolash fizkulturasi, kurortologiya, fizioterapiya)	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
49.	Revmatologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
50.	Sport tibbiyoti	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
51.	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
		5511000	Bolalar stomatologiyasi
52.	Sud-tibbiyot ekspertizasi	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
53.	Terapeutik stomatologiya	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
54.	Tibbiy psixologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
55.	Tibbiy radiologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
56.	Tibbiyot genetikasi	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
57.	Travmatologiya va ortopediya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
58.	Transplantologiya*****	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
59.	Umumiy onkologiya	5510100	Davolash ishi

	(shu jumladan, palliativ tibbiy yordam)	5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
60.	Umumiyl xirurgiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
61.	Urologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
62.	Ftiziatriya	5510200	Pediatriya ishi
		5510100	Davolash ishi
63.	Xirurgik stomatologiya (og'iz bo'shlig'i)	5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
64.	Xalq tabobati	5511000	Bolalar stomatologiyasi
		6091110	Xalq tabobati
65.	Shoshilinch tibbiy yordam	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
66.	Endokrinologiya	5510200	Pediatriya ishi
		5510100	Davolash ishi
67.	Epidemiologiya	5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
68.	Yuz-jag' xirurgiyasi	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
		5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
69.	Yuqumli kasalliklar	5511000	Bolalar stomatologiyasi
		5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi

\*o'qish muddati – 2 yil

\*\* o'qish muddati – 3 yil

\*\*\*«Patologik anatomiya» mutaxassisligini egallagan, bazaviy ma'lumoti 5510300-Tibbiy profilaktika ishi bo'lgan bitiruvchilari, boshqa klinik mutaxassisliklarni egallash ruxsat berilmaydi (faqat «Patologik anatomiya» bo'yicha ishlash ruxsat beriladi).

\*\*\*\* "Kardioxirurgiya" mutaxassisligiga "Xirurgiya" buyicha magistratura yoki "Umumiyl xirurgiya" klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisligining bitiruvchilari hujjat topshiradi, mazkur klinik ordinatura mutaxassisligida o'qish muddati – 3 yil.

\*\*\*\*\* "Bolalar kardioxirurgiyasi", mutaxassisligi bo'yicha klinik ordinatura (rezidentura)ga "Bolalar xirurgiya" magistrurasi yoki "Bolalar xirurgiyasi" klinik ordinatura (rezidentura)si mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarga xujjat topshirishi ruxsat etiladi, o'qish muddati - 3 yil.

\*\*\*\*\* "Transplantologiya" va "Plastik xirurgiya" mutaxassisliklariga "Xirurgiya" va "Bolalar xirurgiyasi" buyicha magistratura yoki "Umumiyl xirurgiya" va "Bolalar xirurgiyasi" klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisligining bitiruvchilari hujjat topshiradi, mazkur klinik ordinatura mutaxassisligida o'qish muddati – 3 yil.

O‘zbekiston Respublikasi  
 Sog‘liqni saqlash vazirining  
 2024-yil 12.01.2024-dagi 239 sonli buyrug‘iga  
 2-ilova

**2024/2025 o‘quv yilida tibbiyot oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari kesimida klinik ordinatura (rezidentura)ga umumiy va maqsadli qabul rejasি**

№	Mutaxassisliklar	Toshkent tibbiyot akademiyasi												Shu jumladan							
		Jami:				Erkin o‘rinlar		Maqsadli o‘rinlar		Toshkent viloyati		Jizzax viloyati		Xorazm viloyati		Surxondaryo viloyati		Sirdaryo viloyati		Namangan viloyati	
		jamii	G	K	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K
1	Akusherlik va ginekologiya	10		10	6		4				1					1		1		1	
2	Allergologiya va klinik immunologiya	5		5	3		2		1									1			
3	Anesteziologiya va reanimatologiya	5		5	4		1											1			
4	Bolalar xirurgiyasi	5		5	4		1														1
5	Bolalar yuqumli kasalliklari	3	2	1	1	2		1						1							
6	Gematologiya va transfuziologiya	4	2	2	2	2							1				1				
7	Dermatovenerologiya (teri tanosil kasalliklari)	5		5	4		1												1		
8	Dietologiya	5	3	2	2	3					1							1		1	
9	Ichki kasalliklari (terapiya) (yo‘nalishlar bo‘yicha)	15	2	13	10	2	3	1			1	1							1		1
10	Kardiologiya	5		5	4		1														
11	Klinik farmakologiya	5		5	4		1										1				
12	Kommunal gigiyena	5	1	4	3	1	1						1				1				
13	Laboratoriya ishi	10	1	9	8	1	1									1		1			
14	Mehnat gigiyenasi	5	1	4	3	1	1	1													1
15	Narkologiya	5	5			5		1					1			1	1	1			
16	Nevrologiya (asab kasalliklari)	5		5	4		1													1	
17	Neyroxirurgiya	5		5	4		1									1					
18	Nefrologiya gemodializ bilan	4	1	3	3	1															1
19	Nutritsiologiya (ovqatlanish gigiyenasi)	5	1	4	1	1	3		1				1				1	1			

20	Otorinolaringologiya	10		10	6		4			1	1	1	1	1					
21	Oftalmologiya	10		10	6		4		1				1	1	1				
22	Patologik anatomiya	5	2	3	1	2	2	1		1		1		1					
23	Pediatriya (yo'nalishlar bo'yicha)	5		5	3		2		1				1						
24	Psixiatriya	5	5			5		1		1	1		1			1			
25	Pulmonologiya	5	5			5		1		1			1	1	1				
26	Revmatologiya	5	2	3	2	2	1			1			1		1				
27	Sport tibbiyoti	5	1	4	4	1						1							
28	Sud tibbiyot ekspertizasi	5	2	3	3	2				1			1						
29	Tibbiy psixologiya	5	5			5		1	1				1	1	1				
30	Tibbiy radiologiya	5		5	4		1		1										
31	Travmatologiya va ortopediya	5		5	4		1					1							
32	Umumiy onkologiya	5		5	4		1					1							
33	Umumiy xirurgiya	5		5	4		1						1						
34	Urologiya	5		5	4		1							1					
35	Ftiziatriya	5	5			5		1	1				1	1	1				
36	Shoshilinch tibbiy yordam	5	1	4	3	1	1	1					1						
37	Endokrinologiya	5		5	4		1		1										
38	Epidemiologiya	5	1	4	3	1	1				1				1				
39	Yuz jag' jarrohligi	5		5	4		1						1						
40	Yuqumli kasalliklar	5	1	4	2	1	2			1	1	1				1			
Jami:		226	49	177	131	49	46	10	6	10	8	6	6	7	9	6	11	7	6

### Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali

№	Mutaxassisliklar	Jami				Erkin o'rirlar*		Surxondaryo viloyati Maqsadli o'rirlar:	
		Jami	G	K	K	G	K		
1	Akusherlik va ginekologiya	6		6	6			-	
2	Allergologiya va klinik immunologiya	4		4	2			2	
3	Anesteziologiya va reanimatologiya	8		8	4			4	
4	Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi	2		2				2	
5	Bolalar kardiorevmatologiyasi	2		2				2	
6	Bolalar nevrologiyasi	2		2	1			1	
7	Bolalar nefrologiyasi gemodializ bilan	4	2	2				2	2
8	Bolalar onkologiyasi va gematologiyasi	4		4				-	4
9	Bolalar xirurgiya	6	2	4	2			2	2
10	Bolalar yuqumli kasalliklari	8	1	7	-			1	7
11	Gematologiya va transfuziologiya	4		4	2			2	
12	Gigiyena (yunalishlar buyicha)	2		2	-			2	
13	Dermatovenerologiya (teri tanosil kasalliklari)	6		6	2			4	

14	Ichki kasalliklar (terapiya) (yunalishlar buyicha)	8		8	2		6
15	Kardiologiya	4		4	2		2
16	Klinik farmakologiya	2	1	1	-	1	1
17	Laboratoriya ishi	8		8	-		8
18	Narkologiya	4	2	2	-	2	2
19	Nevrologiya (asab kasalliklari)	6		6	2		4
20	Neyroquirurgiya	2		2	-		2
21	Neonatologiya	4		4	-		4
22	Nefrologiya gemodializ bilan	2		2	1		1
23	Otorinolaringologiya	8		8	2		6
24	Oftalmologiya	4		4	2		2
25	Patologik anatomiya	2	2	-	-	2	-
26	Pediatriya (yo'nalishlar bo'yicha)	8		8	2	-	6
27	Psixiatriya	2	2	-	-	2	-
28	Pulmonologiya	4		4	-	-	4
29	Revmatologiya	6		6	-	-	6
30	Sud tibbiyot ekspertizasi	2	2	-	-	2	-
31	Tibbiy radiologiya	4	-	4	1	-	3
32	Travmatologiya va ortopediya	6	-	6	2	-	4
33	Umumiy onkologiya (shu jumladan, palliativ tibbiy yordam)	4	-	4	1	-	3
34	Umumiy xirurgiya	3	-	3	1	-	2
35	Urologiya	4	-	4	2	-	2
36	Fiziatriya	6	2	4	1	2	3
37	Endokrinologiya	4	-	4	1	-	3
38	Epidemiologiya	2	-	2	-	-	2
39	Yuqumli kasalliklar	8	2	6	-	2	6
	Jami:	175	18	157	41	18	116

### Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali

№	Mutaxassisliklar	Jami			Erkin o'rinalar*		Maqsadli o'rinalar:		Xorazm vilovati	
		jami	G	K	K	G	K	G	K	
1	Akusherlik va ginekologiya	8		8	2		6		6	
2	Anesteziologiya va reanimatologiya	4		4	1		3		3	
3	Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi	7	2	5	1	2	4	2	4	
4	Allergologiya va klinik immunologiya	2		2			2		2	
5	Bolalar jarrohligi	6		6	2		4		4	
6	Bolalar nevrologiyasi	2		2	1		1		1	
7	Bolalar nefrologiyasi gemodializ bilan	2		2			2		2	
8	Dermatovenerologiya (teri tanosil kasalliklari)	6		6	2		4		4	
9	Gematologiya va transfuziologiya	1		1			1		1	
10	Ichki kasalliklar (terapiya) (yo'nalishlar bo'yicha)	11	2	9	3	2	6	2	6	

11	Kardiologiya	2		2			2		2
12	Klinik farmakologiya	2		2	1		1		1
13	Laboratoriya ishi	10	2	8	2	2	6	2	6
14	Morfologiya	6	2	4	2	2	2	2	2
15	Nevrologiya (asab kasalliklari)	10		10	2		8		8
16	Neyroxirurgiya	4		4	1		3		3
17	Neonatologiya	5	2	3	1	2	2	2	2
18	Nefrologiya gemodializ bilan	2	1	1	1	1		1	
19	Otorinolaringologiya	5		5			5		5
20	Oftalmologiya	2		2			2		2
21	Patologik anatomiya	6	2	4	2	2	2	2	2
22	Pediatriya (yo'nalishlar bo'yicha)	4	1	3	1	1	2	1	2
23	Psixiatriya	3	3			3		3	
24	Pulmonologiya	2	2			2		2	
25	Revmatologiya	2	1	1	1	1		1	
26	Stomatologiya (yo'nalishlari bo'yicha)	10		10	2		8		8
27	Sud tibbiyot ekspertizasi	4	2	2	1	2	1	2	1
28	Tibbiy radiologiya	8		8	2		6		6
29	Umumiy onkologiya (shu jumladan palliativ tibbiy yordam)	13	3	10	3	3	7	3	7
30	Travmatologiya va ortopediya	2		2			2		2
31	Umumiy xirurgiya	4		4	1		3		3
32	Urologiya	1		1	1				
33	Ftiziatriya	4	4			4		4	
34	Shoshilinch tibbiy yordam	3		3	2		1		1
35	Endokrinologiya	8	1	7	2	1	5	1	5
36	Epidemiologiya	5	1	4	1	1	3	1	3
37	Yuz jag' xirurgiyasi	6		6	1		5		5
38	Yuqumli kasalliklar	2		2	1		1		1
Jami:		184	31	153	43	31	110	31	110

### Toshkent tibbiyot akademiyasining Chirchiq filiali

№	Mutaxassisliklar	Jami			Erkin o'rinalar*	Maqsadli o'rinalar Toshkent viloyati:	
		Jami	G	K		G	K
1	Akusherlik va ginekologiya	3		3			3
2	Anesteziologiya va reanimatologiya	3		3			3
3	Ichki kasalliklar (terapiya) (yo'nalishlar bo'yicha)	5	2	3		2	3
4	Laboratoriya ishi	3		3			3
5	Nevrologiya	2		2			2
6	Nefrologiya gemodializ bilan	2		2			2
7	Oftalmologiya	2		2			2
8	Otorinoloringologiya	2		2			2

9	Pediatriya					5	2	3				2	3
10	Sport tibbiyoti					2		2					2
11	Travmatologiya va ortopediya					3		3					3
12	Umumiy xirurgiya					5		5					5
13	Urologiya					3		3					3
14	Shoshilinch tibbiy yordam					2		2					2
15	Endokrinologiya					3		3					3
16	Yuqumli kasalliklar					5	2	3				2	3
<b>Jami:</b>						<b>50</b>	<b>6</b>	<b>44</b>				<b>6</b>	<b>44</b>

№	Mutaxassisliklar	Jami:				Erkin o'rinalar*		Maqsadli o'rinalar:		Uzzaq viloyat				Namangan viloyati				Surxondaryo viloyati				Sirdaryo viloyati				Toshkent viloyati				Fargona viloyati				Qashqadaryo viloyati			
		jami		G	K	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K	G	K					
1	Akusherlik va ginekologiya	18		18		11			7		1		1			1		1		1		1		1		1		1		1		1					
2	Allergologiya va klinik immunologiya	5		5		2			3											1		1															
3	Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi	14	3	11		7	3	4	1				1		1		1		1		1		1		1		1		1		1						
4	Bolalar va o'smir qizlar ginekologiyasi	14		14		10			4		1								1		1		1		1												
5	Bolalar nevrologiyasi	20		20		16			4										1		1		1		1		1		1		1		1				
6	Bolalar nefrologiyasi gemodializ bilan	5		5		2			3		1			1					1															1			
7	Bolalar xirurgiyasi	15		15		8			7		1		1		1		1		1		1		1		1		1		1		1		1				
8	Bolalar yuqumli kasalliklari	6	3	3		2	3	1	1				1					1				1															
9	Bolalar onkologiya-gematologiyasi	5	2	3		3	2												1															1			
10	Bolalar immunologiya-allergologiyasi	5	2	3		3	2												1															1			
11	Bolalar terapevtik stomatologiyasi	6		6		3			3		1		1	1																							
12	Gematologiya va transfuziologiya	4	1	3		2	1	1	1												1																
13	Dermatovenerologiya (teri tanosil kasalliklari)	12		12		6			6		1		1			1		1		1									1		1		1				

14	Ichki kasalliklar (terapiya) (yo‘nalishlar bo‘yicha)	12	12	6	6	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
15	Kardiologiya	8	8	4	4	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
16	Narkologiya	6	2	4	2	2	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
17	Nevrologiya (asab kasalliklari)	12	12	8	4	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
18	Neyroxirurgiya	4	4	2	2	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
19	Neonatologiya	14	2	12	8	2	4	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
20	Nefrologiya gemodializ bilan	8	2	6	5	2	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
21	Otorinolaringologiya	18	18	14	4	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
22	Oftalmologiya	14	14	10	4	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
23	Pediatriya (yo‘nalishlar bo‘yicha)	30	4	26	23	4	3	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
24	Psixiatriya	10	3	7	7	3	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
25	Sport tibbiyoti	3	1	2	2	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
26	Sud tibbiyot ekspertizasi	6	1	5	4	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
27	Tibbiy genetika	5	1	4	3	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
28	Tibbiy psixiologiya	7	1	6	4	1	2	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
29	Tibbiy radiologiya	20	20	16	4	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
30	Travmatologiya va ortopediya	8	8	4	4	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
31	Umumiy onkologiya	5	1	4	3	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
32	Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi	6	3	3	2	3	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
33	Umumiy xirurgiya	4	4	2	2	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
34	Urologiya	5	5	3	2	2	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
35	Bolalar urologiyasi	5	5	3	2	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
36	Fiziatriya	9	4	5	2	4	3	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
37	Shoshilinch tibbiy yordam	5	2	3	2	2	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
38	Endokrinologiya	15	15	10	5	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
39	Epidemiologiya	4	4	4	4	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
40	Yuqumli kasalliklar	8	4	4	1	4	3	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
<b>Jami:</b>		<b>380</b>	<b>46</b>	<b>334</b>	<b>225</b>	<b>46</b>	<b>109</b>	<b>9</b>	<b>18</b>	<b>4</b>	<b>13</b>	<b>7</b>	<b>20</b>	<b>10</b>	<b>16</b>	<b>8</b>	<b>14</b>	<b>3</b>
																<b>10</b>	<b>5</b>	<b>18</b>

## Toshkent davlat stomatologiya instituti

## **Andijon davlat tibbiyot instituti**

№	Mutaxassisliklar	Andijon davlati Rossiya Federasiyasida						Shu jumladan						
		Jami			Erkin o'rinalar*		Maqsadli o'rinalar		Andijon viloyati		Namangan viloyati		Fargona viloyati	
		Jami	G	K	K	G	K	G	K	G	K	G	K	
1	Akusherlik va ginekologiya	26		26	5		21		7		7		7	
2	Allergologiya va klinik immunologiya	4		4	1		3		1		1		1	
3	Anesteziologiya va reanimatologiya	19	2	17	4	2	13	1	5	1	4		4	
4	Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi	10		10	1		9		3		3		3	
5	Bolalar xirurgiyasi	8		8	1		7		4		2		1	
6	Bolalar nevrologiyasi	9		9	2		7		3		2		2	
7	Bolalar yuqumli kasalliklari	6		6	3		3		1		1		1	

8	Bolalar nefrologiyasi gemodializ bilan	5		5	1		4		2		2			
9	Bolalar terapeutik stomatologiyasi	3		3	1		2		1				1	
10	Gematologiya va transfuziologiya	4		4	1		3		1		1		1	
11	Dermatovenerologiya (teri tanosil kasalliklari)	4		4	1		3		1		1		1	
12	Ichki kasalliklar (terapiya) (yo'nalishlar bo'yicha)	22	5	17	2	5	15	3	5	1	5	1	5	
13	Kardiologiya	19		19	1		18		8		8		2	
14	Laboratoriya ishi	29	5	24	4	5	20	3	12	1	4	1	4	
15	Narkologiya	6	2	4		2	4	1	2	1	1		1	
16	Nefrologiya gemodializ bilan	4		4	1		3		1		1		1	
17	Neonatologiya	27	10	17	4	10	13	4	5	3	4	3	4	
18	Nevrologiya (asab kasalliklari)	11		11	2		9		6				3	
19	Otorinolaringologiya	7		7	1		6		2		2		2	
20	Oftalmologiya	9		9	1		8		5		2		1	
21	Patologik anatomiya	5	3	2		3	2	1	1	1	1	1		
22	Pediatriya	25	2	23	3	2	20	2	6		6		8	
23	Pulmonologiya	4		4	1		3		1		1		1	
24	Psixiatriya	12	6	6	2	6	4	2	2	2	1	2	1	
25	Reabilitologiya (davolash fizkulturasi, kurortologiya, fizioterapiya)	3		3	1		2		1				1	
26	Sport tibbiyoti	3		3	1		2		1				1	
27	Sud tibbiyot ekspertizasi	4	2	2		2	2	1	1	1	1			
28	Travmatologiya va ortopediya	4		4	1		3		1		1		1	
29	Terapeutik stomatologiyasi	4		4	1		3		1		1		1	
30	Tibbiy radiologiya	13		13	2		11		5		2		4	
31	Umumiy onkologiya	17		17	1		16		5		6		5	
32	Umumiy xirurgiya	11		11	2		9		5		2		2	
33	Urologiya	9		9	2		7		3		2		2	
34	Ftiziatriya	10	6	4	1	6	3	2	1	2	1	2	1	
35	Xirurgik stomatologiya (ogiz bo'shlig'i)	4		4	1		3		1		1		1	
36	Endokrinologiya	6		6	2		4		2		1		1	
37	Epidemiologiya	8	5	3		5	3	3	1	1	1	1	1	
38	Yuz-jag' xirurgiyasi	4		4	1		3		1		1		1	
39	Yuqumli kasalliklar	12		12	2		10		4		3		3	
<b>Jami:</b>			<b>390</b>	<b>48</b>	<b>342</b>	<b>61</b>	<b>48</b>	<b>281</b>	<b>23</b>	<b>118</b>	<b>14</b>	<b>83</b>	<b>11</b>	<b>80</b>

## Buxoro davlat tibbiyot institut

34	Psixiatriya	6	3	3	3	3		2			1				
35	Pulmonologiya	5	2	3	3	2				1		1			
36	Revmatologiya	5		5	4		1					1			
37	Sport tibbityoti	2	2			2		1				1			
38	Sud tibbiyot ekspertizasi	4	2	2	2	2		1				1			
39	Terapevtik stomatologiya	10		10	8		2			1		1			
40	Tibbiy psixologiya	3	1	2	2	1					1				
41	Tibbiy radiologiya	14		14	10		4		1		1	1		1	
42	Travmatologiya va ortopediya	10		10	8		2			1		1			
43	Umumiy onkologiya	6		6	4		2		1			1			
44	Umumiy xirurgiya	14		14	10		4		1		1	2			
45	Urologiya	6		6	4		2			1		1			
46	Ftiziatriya	4	2	2	2	2	1				1				
47	Xirurgik stomatologiya (og'iz bo'shlig'i)	4		4	2		2			1		1			
48	Shoshilinch tibbiy yordam	10		10	8		2			1		1			
50	Endokrinologiya	10		10	8		2			1		1			
51	Epidemiologiya	2	2			2		1			1				
52	Yuqumli kasalliklar	10	3	7	7	3	1		1		1				
<b>Jami:</b>		<b>362</b>	<b>34</b>	<b>330</b>	<b>261</b>	<b>31</b>	<b>72</b>	<b>14</b>	<b>8</b>	<b>3</b>	<b>18</b>	<b>15</b>	<b>40</b>	<b>2</b>	<b>7</b>

№	Mutaxassisliklar	Jami:			Erkin o'rinalar*		Maqsadli o'rinalar		Shu jumladan						
		jami	G	K	K	G	K	Samarqand viloyati		Jizzax viloyati		Qashqadaryo viloyati		Surxondaryo viloyati	
								G	K	G	K	G	K	G	K
1	Akusherlik va ginekologiya	50		50	20		30		6		4		10		10
2	Allergologiya va immunologiya	5		5	1		4		1		1		1		1
3	Anesteziologiya va reanimatologiya	15	5	10	6	5	4	1	1	1	1	1	1	2	1
4	Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi	5		5	1		4		1		1		1		1
5	Bolalar va o'smir qizlar ginekologiyasi	15		15	11		4		1		1		1		1
6	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi	4		4			4		1		1		1		1
7	Bolalar jarroxlik stomatologiyasi	5		5	5										
8	Bolalar nevrologiyasi	20		20	15		5		1		1		1		2
9	Bolalar nefrologiyasi gemodializ bilan	5		5	1		4		1		1		1		1
10	Bolalar terapevtik stomatologiyasi	5		5	5										
11	Bolalar xirurgiyasi	5		5	1		4		1		1		1		1
12	Bolalar yuqumli kasalliklari	6	4	2	2	4		1		1		1		1	
13	Gematologiya va transfuziologiya	5		5	1		4		1		1		1		1
14	Dental implantologiya	10		10	10										
15	Dermatovenerologiya (teri tanosil kasalliklari)	10		10	6		4		1		1		1		1
16	Ichki kasalliklari (terapiya)	20		20	14		6		2		1		1		2

17	Kardiologiya	20		20	14		6		1		1		2		2
18	Bolalar kardiologiyasi	5		5	5										
19	Kommunal gigiyena	10	4	6	6	4		10	1		1		1		1
20	Laboratoriya ishi	25		25	15		4		3		1		4		2
21	Mehnat gigiyenasi	4	4			4			1		1		1		1
22	Narkologiya	10	6	4	4	6			2		1		1		2
23	Nevrologiya (asab kasalliklari)	25		25	21		4		1		1		1		1
24	Neyroxirurgiya	8		8	6		2						1		1
25	Neonatologiya	10		10	4		6		1		1		2		2
26	Nefrologiya gemodializ bilan	5		5	1		4		1		1		1		1
27	Nutritsiologiya (ovkatlanish gigiyenasi)	4	4			4			1		1		1		1
28	Ortodontiya	8		8	8										
29	Ortopedik stomatologiya	15		15	15										
30	Otorinolaringologiya	25		25	21		4		1		1		1		1
31	Oftalmologiya	14		14	8		6		1		1		2		2
32	Parodontologiya	4		4	4										
33	Patologik anatomiya	10	4	6	6	4		1		1		1		1	
34	Pediatriya	20		20	12		8		1		1		3		3
35	Psixiatriya	6	4	2	2	4		1		1		1		1	
36	Pulmonologiya	5		5	2		3		1		1		1		1
37	Reabilitologiya (davolash fizkulturası, kurortologiya, fizioterapiya)	4		4	4										
38	Revmatologiya	6		6	2		4		1		1		1		1
39	Sport tibbiyoti	4		4	3		1		1						
40	Sud tibbiyot ekspertizasi	6	4	2	2	4		1		1		1		1	
41	Terapeutik stomatologiya	7		7	7										
42	Tibbiy radiologiya	30		30	30										
43	Travmatologiya va ortopediya	20		20	14		6		1		1		2		2
44	Umumiy onkologiya	10		10	6		4		1		1		1		1
45	Bolalar onkologiya-gematologiyasi	5		5	5										
46	Umumiy xirurgiya	12		12	6		6		2			2		2	
47	Urologiya	15		15	11		4		1		1		1		1
48	Fiziatriya	8	4	4	4	4		1		1		1		1	
49	Xirurgik stomatologiya (og'iz bo'shlig'i)	10		10	10										
50	Endokrinologiya	14		14	8		6		1		1		2		2
51	Epidemiologiya	8	4	4	4	4		1		1		1		1	
52	Yuz-jag' xirurgiyasi	15		15	15										
53	Yuqumli kasalliklar	8	4	4	4	4		1				1		2	
<b>Jami:</b>		<b>600</b>	<b>51</b>	<b>549</b>	<b>388</b>	<b>51</b>	<b>161</b>	<b>13</b>	<b>37</b>	<b>11</b>	<b>28</b>	<b>12</b>	<b>48</b>	<b>14</b>	<b>48</b>

**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

№	Mutaxassisliklar	Jami:			Erkin o'rinlar*	Maqsadli o'rinlar	Shu jumladan						
		jamı	G	K			G	K	G	K	G	K	
1	Akusherlik va ginekologiya	25		25	25						10		15
2	Allergologiya va klinik immunologiya	6	2	4	4	2					1	2	1
3	Anesteziologiya va reanimatologiya	20	4	16	16	4					2	8	2
4	Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi	15	5	10	10	5					2	5	3
5	Bolalar kardiorevmatologiyasi	2		2	2							1	1
6	Bolalar va o'smir qizlar ginekologiyasi	2		2	2							1	1
7	Bolalar nevrologiyasi	4		4	4							2	2
8	Bolalar nefrologiyasi gemodializ bilan	2		2	2							1	1
9	Bolalar xirurgiyasi	4		4	4							1	3
10	Bolalar yuqumli kasalliklari	2		2	2							2	
11	Bolalar immunologiya-allergologiyasi	4		4	4							3	1
12	Gematologiya va transfuziologiya	3		3	3							2	1
13	Gigiyena (yo'nalishlar bo'yicha)	12	6	6	6	6					2	4	6
14	Dermatoveneralogiya	12		12	12							6	6
15	Diyetologiya	2		2	2							2	
16	Ichki kasalliklari (terapiya) (yo'nalishlar bo'yicha)	8	4	4	4	4					2	2	2
17	Kardiologiya	12		12	12							4	8
18	Kommunal gigiyena	2		2	2								2
19	Laboratoriya ishi	8	4	4	4	4					1	1	3
20	Mehnat gigivenasi	2	1	1	1	1						1	1
21	Narkologiya	2	2			2					1		1
22	Nevrologiya (asab kasalliklari)	6		6	6							4	2
23	Neyroquirugiya	2		2	2								2
24	Neonatologiya	12	6	6	6	6			2	2	3	2	3
25	Nefrologiya gemodializ bilan	2		2	2							2	
26	Otorinolaringologiya	8		8	8							4	4
27	Oftalmologiya	8		8	8							4	4
28	Patologik anatomiya	4	4			4					1		3
29	Pediatriya (yo'nalishlar bo'yicha)	16	6	10	10	6					3	5	3
30	Psixiatriya	2	2			2					2		
31	Pulmonologiya	2	2			2					1		1
32	Reabilitologiya (davolash fizkulturasi, kurortologiya, fizioterapiya)	2		2	2							2	
33	Revmatologiya	2		2	2							1	1
34	Terapevtik stomatologiya	6	2	4	4	2						2	4
35	Tibbiy psixologiya	2	2			2					2		

36	Tibbiy radiologiya	2		2	2					1		1	
37	Travmatologiya va ortopediya	12		12	12					5		7	
38	Umumiy onkologiya	12		12	12					7		5	
39	Umumiy xirurgiya	12		12	12					6		6	
40	Urologiya	6	3	3	3	3			1	1	2	2	
41	Ftiziatriya	10	10			10			7		3		
42	Endokrinologiya	8	2	6	6	2			1	4	1	2	
43	Epidemiologiya	4	2	2	2	2			1	1	1	1	
44	Yuz jag' xirurgiyasi	4	1	3	3	1				1		3	
45	Yuqumli kasalliklar	8		8	8				6		2		
<b>Jami:</b>		<b>301</b>	<b>70</b>	<b>231</b>	<b>231</b>	<b>70</b>		<b>2</b>		<b>32</b>	<b>109</b>	<b>36</b>	<b>122</b>

**Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti**

№	Mutaxassisliklar	Jami			Erkin o'rinlar*	Maqsadli o'rinlar		Qoraqalpog'iston Respublikasi		
		Jami	G	K		G	K	G	K	
1	Akusherlik va ginekologiya	4		4				4		4
2	Anesteziologiya va reanimatologiya	5	1	4			1	4	1	4
3	Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi	4	1	3			1	3	1	3
4	Bolalar xirurgiyasi	2		2				2		2
5	Gematologiya va transfuziologiya	2	1	1			1	1	1	1
6	Diyetologiya	4	1	3			1	3	1	3
7	Ichki kasalliklar (terapiya) (yo'nalishlar bo'yicha)	4	2	2			2	2	2	2
8	Kardiologiya	2		2				2		2
9	Narkologiya	2	2				2		2	
10	Nevrologiya (asab kasalliklari)	2		2				2		2
11	Neonatologiya	2		2				2		2
12	Otorinolaringologiya	1		1				1		1
13	Pediatriya (yo'nalishlar bo'yicha)	4	2	2			2	2	2	2
14	Psixiatriya	2	2				2		2	
